

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINING UMUMIY YALPI ICHKI MAHSULOTDAGI VA AHOLO BANDLIGIDAGI ULUSHI

**Yusupov Abbosxon**

Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

[abboskhony90@gmail.com](mailto:abboskhony90@gmail.com)

**Toshxodjayev Abduqodir**

Qo'qon universiteti talabasi

[abduqodir2412@gmail.com](mailto:abduqodir2412@gmail.com)

## Annotatsiya

Maqlada mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi hamda bandlikning kichik biznesdagi ulushi tahlil etilgan.

The article analyzes the share of small business and private entrepreneurship in GDP and the share of employment in small business in the country's economy.

В статье анализируется доля малого бизнеса и частного предпринимательства в ВВП и доля занятости в малом бизнесе в экономике страны

**Kalit so'zlar:** iqtisodiyot, siyosiy va iqtisodiy tizim, Yalpi ichki mahsulot, aholi bandligi, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotini, uning barqarorligini hamda rivojlanishini kichik biznesning ulushisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining ham iqtisodiy va siyosiy tizimlarida hamda rivojlanishining asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni sezilarli darajada katta.

Mamlakat iqtisodiyotiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik har bir sohadagi, ayniqsa yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, aholi bandligi, qurilish, sanoat, eksport va import yuzasidan xissa qo'shib kelayotganligi barchaga ma'lum. Kichik biznes aholi daromadlarini oshishida ham, aholi farovonligini ta'minlashda ham katta ahamiyatga egadir.

Aholi bandligi mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligiga, mikroiqtisodiy rivojlanishiga, aholining turmush darajasi va sifatining o'sishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biridir. Aholi bandligini ta'minlash, ish o'rinalarini yaratishni rag'batlantirish hamda aholi bandligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2020 yil, 28 aprelda "Aholi bandligi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilingan. Quyidagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlar 2000 yildan 2020 yil oxirigacha kichik biznesning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushi (foizda) hamda aholi bandligining kichik biznesdagi ulushini (foizda va ming nafar) yoritib beradi. (1-jadval)

Indicators	2000	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020
small business GDP (in percent)	31,0	33,8	34,6	35,0	35,6	38,2	42,1	45,7	48,2	50,1	60,8	61,9	60,8	60,9	61,9	64,6	66,8	65,3	62,4	56,0	55,7
Employment (in percent)	49,7	51,8	53,5	56,7	60,3	64,8	69,1	72,1	73,1	73,9	74,3	75,1	75,6	76,7	77,6	77,9	78,2	78,0	76,3	76,2	74,5
Employment (in thousands)	4467,1	4733,0	4994,1	5436,7	5974,9	6602,5	7234,1	7743,1	8071,1	8370,1	8643,9	8950,7	9239,7	9604,0	9950,8	10170,4	10397,5	10541,5	10128,8	10318,9	9865,7

Yuqoridagi jadvalga ko'ra, kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2000 yilda atigi 31 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016 yilgacha faqatgina o'sishni boshdan kechirdi va taqriban 67%ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2018, 2019 va 2020 yillarda keskin pastlagani e'tiborga molikdir. 2019 yilda boshlangan Covid 2019 pandemiyasi, albatta, kichik biznes hamda aholi bandligi sohalariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadı.

Lekin mamlakatda olib borilayotgan islohotlar va tizimli ishlar sababli Covid 2019 pandemiyasining ta'siri juda katta va salbiy bo'lmadi.

Kichik biznesdagi aholi bandligi ham deyarli bir xil trendni namoish etdi. 2000 yilda 4467 ming nafar insonlar kichik biznesda ish bilan band bo'lib, bu ko'rsatkich tahminan 50 foizni tashkil etgan. Bu ikki ko'rsatkich ham 2019 yilgacha faqat o'sishni ko'rsatgan bo'la, 2019 va 2020 yillarda ozroq pastlagan.

Eng e'tiborli tomoni shundaki, ja'mi yalpi ichki mahsulotning tahminan 56 foizi va aholi bandligining 75 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka tegishli ekan, bu ko'rsatkichlar O'zbekiston Respublikasida kichik biznesni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash maqsadida yangi ish o'rinalarini yaratishni rag'batlantirish jarayonlari samarali tashkil etilganligining isbotidir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mamlakatimizning iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy sohalarida alohida o'rin tutgan bo'lib, ularning rivojlanishi iqtisodiy o'sish, aholi bandligini ta'minlash hatto, tashqi iqtisodiy faoliyatda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ularning erkin faoliyat yuritishi va bandlik munosabatlarining muvofiqlashtirilganligi mamlakatda bunday faoliyatni amalga oshirish istagini yaratilinishiga va mavjud kichik biznes subyektlar esa, turli hil yangi sohalarni kashf etishlariga olib keladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Xodiev B.Y. Qosimova M.S. Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. T. 2010.
2. Boltabaev M. Qosimova M. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" Iqtisod. 2011
3. Ruziev S., Rasulov H., Yusupov A. MEHMONDO'STLIK VA TURIZM SANOATIDAGI BOSHQARUV SOXALARIDA GENDER XILMA-XILLIGI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 156-173.
4. Ruziev, S. (2022). Hamidjon Rasulov. Abbosxon Yusupov. Mehmondo'stlik va turizm sanoatidagi boshqaruv soxalarida gender xilma-xilligi, 2(2).
5. Boburmirzo X., Abbosxon Y. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINING RIVOJLANISH TAHLILI //E Conference Zone. – 2022. – C. 168-170.
6. Шохрузбек Равшан Ўғли Рузиев, Ҳамиджон Якубович Расулов, Аббосхон Алиевич Юсупов ОЦЕНКА ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ТУРИЗМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН // Academic research in educational sciences. 2022
7. Шохрузбек Равшан Ўғли Рузиев, Аббосхон Алиевич Юсупов Туризм хизматларни яратишда рақамли технологиялардан фойдаланишини такиеллаштириш йўллари // Наука и образование. 2022. №2
8. <https://stat.uz/uz/> - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari